| Lugmanov B.M. ....                                                                                                                                            | 577        |
| KAPITAL TANQISLIGI SHAROITIDA MOLIVAVIY RESURLARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH                                                                                    |            |
| Arziyev S. ....                                                                                                                                               | 585        |
| <b>V SHO‘BA. ESG STANDARTLARIGA MOS KELADIGAN INVESTITSIYA LOYIHALARINI QO‘LLAB-QUVVATLASH, DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK VA XALQARO MOLIVA INSTITUTLARI</b> ..... | <b>590</b> |
| SANOAT KLASTERLARI – SANOAT SALOHİYATINI OSHIRISHNING STRATEGİK YO‘NALISHI SIFATIDA                                                                           |            |
| Sobirov A.A. ....                                                                                                                                             | 590        |
| АНАЛИЗ ВА СИНТЕЗ МЕТОДЛАРИНИНГ ЭВОЛЮЦИЯСИ                                                                                                                     |            |
| Dusmuratov P.D., Nosirova N.J. ....                                                                                                                           | 597        |
| ESG-ФАКТОРЫ В ПРИНЯТИИ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ: ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ                                                                                             |            |
| Kim L.N., Eltaev N.K. ....                                                                                                                                    | 606        |
| КЛЮЧЕВЫЕ АСПЕКТЫ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОДДЕРЖКИ «ЗЕЛЁНОЙ» ЭКОНОМИКИ НА ПРИМЕРЕ НИЖЕГОРОДСКОЙ ОБЛАСТИ                                                                 |            |
| Remizova I.V. ....                                                                                                                                            | 614        |
| TIJORAT BANKLARIDA DAVLAT MAQSADLI DASTURLARINI MOLIVALASHNING ILG‘OR XORIY TAJRIBALARI                                                                       |            |
| Shodiyev Sh.S. ....                                                                                                                                           | 620        |
| ВЛИЯНИЕ ЗЕЛЁНЫХ ИНВЕСТИЦИЙ НА ИНВЕСТИЦИОННУЮ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТЬ АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВ                                                                            |            |
| Usmanova Yu. ....                                                                                                                                             | 623        |
| YASHIL ENERGETIKA SOHASIDA INVESTITSIYALARNING ROLI                                                                                                           |            |
| Primov S.F. ....                                                                                                                                              | 632        |
| ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ РЕСУРСОВ В РАМКАХ ЗЕЛЕННЫХ РАБОЧИХ МЕСТ                                                                    |            |
| Huvaydulloeva I.X. ....                                                                                                                                       | 638        |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INVESTITSIYALARNI JALB QILISH                                                                                                  |            |
| Primov S.F. ....                                                                                                                                              | 642        |
| TIJORAT BANKLARINING FAOLIYATIDA UCHRAIDIGAN RISKLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI                                                                        |            |
| Husanboev A.F. ....                                                                                                                                           | 647        |
| ВЛИЯНИЕ ПРИНЦИПОВ ESG НА РЕЗУЛЬТАТЫ ПЕРВИЧНОГО ПУБЛИЧНОГО РАЗМЕЩЕНИЯ АКЦИЙ: КОМПЛЕКСНЫЙ АНАЛИЗ                                                                |            |
| Saydulloev Sh. ....                                                                                                                                           | 653        |
| RAHBAR KADRLARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI                                                             |            |
| Olimov S.A. ....                                                                                                                                              | 660        |
| MILLIY IQTISODIYOTDA KICHIK TADBIRKORLIKNING O‘RNI VA AHAMIYATI                                                                                               |            |
| Kurbanova Sh.Y., Yusupov A.A. ....                                                                                                                            | 667        |
| ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ТРАНСФОРМАЦИЮ БИЗНЕС-МОДЕЛЕЙ И ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ                                                                        |            |

|                                                                                                                                                          |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Koptaeva G.II., Bekebaeva M.O. ....                                                                                                                      | 672 |
| HUDUDLAR TASHQI IQTISODIY STRATEGIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI                                                                |     |
| Toshboyev M.M. ....                                                                                                                                      | 680 |
| QISHLOQ XO‘JALIGIDA KLASSTERLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA‘MINLASHDA DAVLAT SUBSIDİYALARINING AHAMIYATI                                            |     |
| Yuldasheva D.K. ....                                                                                                                                     | 689 |
| O‘ZBEKISTONDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY-IJTIMOIIY AHAMIYATI                                                               |     |
| Mamatov M.N. ....                                                                                                                                        | 699 |
| RAQAMLI-ELEKTRON PULLAR VA KRIPTOVALYUTALAR FARQLARI                                                                                                     |     |
| Matchanov T.M., Matchanova M.I. ....                                                                                                                     | 703 |
| AXBOROT TIZIMLARI XUSUSIYATLARI                                                                                                                          |     |
| Norinov M.U., Abdulxamid A.I., Oripov O.I., Madaminov F.R. ....                                                                                          | 709 |
| CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH SANOATI VA ATROF-MUHITGA SALBIY TA‘SIRINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI                                                               |     |
| Tursunqulov Sh.R. ....                                                                                                                                   | 715 |
| O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA ISHLAB CHIQARISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH VA IQLIM O‘ZGARISHI OQIBATLARIGA MOSLASHISH MEXANIZMLARI |     |
| Abduraxmanova Z.T., Rustamova M.M. ....                                                                                                                  | 722 |
| RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI SANOATDA EKOLOGIK SAMARADORLIKNI OSHIRISH                                                                                  |     |
| Hasanov H.X. ....                                                                                                                                        | 727 |
| SHADOW ECONOMY EXPOSED: THE HIDDEN FORCES SHAPING ECONOMY.                                                                                               |     |
| Arziev Sh.R. ....                                                                                                                                        | 735 |
| TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARI                                                                      |     |
| Axmedova D.B. ....                                                                                                                                       | 741 |

# TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA INNOVATSION XATARLARNI BOSHQARISH VA HUDUDIIY “YASHIL” IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Rashidov Jamshid Xamidovich**

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti

“Biznes boshqaruvi va moliya” kafedrasida dotsenti

E-mail: [rashidovj75@gmail.com](mailto:rashidovj75@gmail.com)

Orcid: 0000-0001-7847-5397

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada to‘qimachilik korxonalarida innovatsion xatarlarni samarali boshqarish va hududiy “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Innovatsion faoliyatda yuzaga keladigan texnologik, moliyaviy, ekologik va tashkiliy xatarlar tahlil qilingan hamda ularning ishlab chiqarish samaradorligi va barqaror rivojlanishga ta’siri o‘rganilgan. Shuningdek, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish doirasida ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash va energiya samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so‘zlar:** innovatsion xatarlar, to‘qimachilik sanoati, yashil iqtisodiyot, ekologik texnologiyalar, barqaror rivojlanish, hududiy mexanizmlar.*

***Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы эффективного управления инновационными рисками на предприятиях текстильной промышленности и совершенствования механизмов развития региональной «зелёной» экономики. Проведен анализ технологических, финансовых, экологических и организационных рисков, возникающих в инновационной деятельности, а также их влияния на эффективность производства и устойчивое развитие. Предложены меры по внедрению экологически чистых технологий, переработке отходов и повышению энергоэффективности в рамках концепции «зелёной» экономики.*

***Ключевые слова:** инновационные риски, текстильная промышленность, зелёная экономика, экологические технологии, устойчивое развитие, региональные механизмы.*

***Annotation.** This article examines the effective management of innovation risks in textile enterprises and the improvement of regional “green” economy development mechanisms. It analyzes technological, financial, environmental, and organizational risks arising in innovation activities and their impact on production efficiency and sustainable development. The article also proposes measures for introducing eco-friendly technologies, waste recycling, and increasing energy efficiency within the framework of the green economy.*

***Keywords:** innovation risks, textile industry, green economy, environmental technologies, sustainable development, regional mechanisms.*

## **Kirish**

Hozirgi davrda jahon iqtisodiyotida innovatsion rivojlanish, ekologik barqarorlik va resurslardan oqilona foydalanish masalalari strategik ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, ishlab chiqarish tarmoqlarida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish orqali yuqori samaradorlikka erishish, raqobatbardoshlikni oshirish va barqaror rivojlanishni ta’minlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyotida to‘qimachilik sohasi eksport salohiyati, ishlab chiqarish hajmi va bandlikni ta’minlashdagi roli bilan yetakchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, mazkur tarmoqda texnologik yangilanishlar, raqamli

yechimlar, ekologik toza ishlab chiqarish jarayonlarini yo'lga qo'yish innovatsion taraqqiyotning muhim omiliga aylanmoqda. Biroq innovatsion faoliyatni kengaytirish jarayonida texnologik, moliyaviy, tashkiliy va ekologik xatarlar yuzaga keladi. Bu xatarlar korxonalarining ishlab chiqarish barqarorligi, moliyaviy natijalari va bozor raqobatbardoshligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Boshqa tomondan, hududiy miqyosda "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi energetika samaradorligini oshirish, chiqindilarni qayta ishlash, tabiiy resurslardan tejab-tergab foydalanish va ekologik muvozanatni saqlashga qaratilgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Hududlarda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish mexanizmlarining samaradorligi esa korxonalar darajasida ekologik innovatsiyalarni qo'llash va xatarlarni to'g'ri boshqarish bilan uzviy bog'liqdir.

Shu bois, to'qimachilik korxonalarida innovatsion xatarlarni boshqarish masalasini hududiy "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish mexanizmlari bilan integratsiyalashgan holda o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega. Bu jarayon ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ekologik barqarorlikni ta'minlash hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

So'nggi yillarda innovatsion xatarlarni boshqarish va "yashil" iqtisodiyot mexanizmlarini shakllantirish bo'yicha ko'plab ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Raqobatbardoshlikni oshirishda texnologik innovatsiyalarni keng joriy etish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlash zamonaviy iqtisodiyotning muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda [1]. Xususan, to'qimachilik sanoatida energiya samaradorligi, suv resurslarini tejash va chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalarini qo'llash orqali ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilishga e'tibor kuchaymoqda [2].

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, innovatsion xatarlarni aniqlash va ularni samarali boshqarish mexanizmlari, ishlab chiqarish jarayonlarining raqamlashtirilishi va barqaror texnologiyalarni joriy etish bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, Yevropa Ittifoqida to'qimachilik klasterlari uchun ekologik sertifikatlash tizimi, uglerod izini kamaytirish dasturlari va innovatsion moliyalashtirish instrumentlari keng qo'llanilmoqda [3].

"Yashil" iqtisodiyotga o'tish masalalari bo'yicha Jahon banki va Xalqaro energetika agentligi tomonidan tayyorlangan hisobotlarda hududiy darajada ekologik infratuzilmani rivojlantirish, yashil investitsiyalarni jalb qilish va davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalarni amalga oshirishning muhimligi ta'kidlanadi[4]. Shu bilan birga, ilmiy izlanishlar natijalariga ko'ra, innovatsion xatarlarni faqat korxona ichida boshqarish bilan cheklanmasdan, ularni hududiy

strategiyalar va barqaror rivojlanish siyosatlari bilan uyg'unlashtirish samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi [5].

So'nggi yillardagi milliy ilmiy ishlar ham to'qimachilik sanoatida ekologik texnologiyalarni joriy etish, chiqindisiz ishlab chiqarish tizimlarini yaratish va raqamli boshqaruv yechimlarini qo'llash bo'yicha dolzarb masalalarni ko'tarib chiqmoqda [6]. O'zbekiston Respublikasida "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" doirasida energiya tejankor texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va ekologik talablarni kuchaytirishga qaratilgan qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsion xatarlarni boshqarish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish mexanizmlarini integratsiyalashgan holda tadqiq etish O'zbekiston sharoitida hali to'liq o'z ilmiy-uslubiy yechimini topmagan. Shu sababli, ushbu yo'nalishda ilmiy asoslangan yangi yondashuvlar ishlab chiqish dolzarbdir.

### **Metodologiya**

Tadqiqotda to'qimachilik korxonalarida innovatsion xatarlarni baholash va hududiy "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish mexanizmlarini tahlil qilish uchun tizimli, taqqoslash va statistik uslublar qo'llanildi.

Tizimli yondashuv orqali innovatsion xatarlar va ekologik mexanizmlarning o'zaro bog'liqligi aniqlab berildi. Taqqoslash usuli yordamida O'zbekiston tajribasi xalqaro amaliyot bilan solishtirildi. Statistik tahlil asosida ishlab chiqarish ko'rsatkichlari, energiya sarfi va ekologik ta'sir omillari o'rganildi.

Bundan tashqari, me'yoriy-huquqiy hujjatlar, xalqaro hisobotlar va zamonaviy ilmiy adabiyotlar kontent tahlili orqali tahlil qilindi, bu esa ilmiy xulosalarning ishonchligini ta'minladi.

### **Tahlil va natijalar**

O'zbekiston iqtisodiyotida to'qimachilik sanoati nafaqat eksportning asosiy drayveri, balki aholi bandligini ta'minlovchi muhim tarmoqlardan biridir. So'nggi yillarda ushbu sohada ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, texnologik modernizatsiya va global bozorga integratsiyalashuv bo'yicha sezilarli natijalarga erishildi. Biroq innovatsion jarayonlar bilan bog'liq xatarlarni samarali boshqarish va ishlab chiqarishning ekologik barqarorligini ta'minlash masalalari hali to'liq hal etilmagan. Natijada, ko'plab to'qimachilik korxonalari zamonaviy ekologik talablar va raqobat sharoitida strategik ustunlikka erisha olmayapti [7].

#### **1. Innovatsion xatarlarning hozirgi holati.**

O'zbekiston to'qimachilik sanoatida innovatsion faoliyat ko'proq texnik yangilanishlarga qaratilgan. Ya'ni, asosan yangi uskunalarni xarid qilish, ishlab chiqarish liniyalarini avtomatlashtirish va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish maqsadida texnologik investitsiyalar amalga oshirilmoqda. Ammo

innovatsion risk-menejmentining strategik jihatlari - ekologik, ijtimoiy va institutsional xavflarni aniqlash hamda ularni boshqarish mexanizmlari yetarli darajada rivojlanmagan [8].

Misol uchun, ishlab chiqarish jarayonlarida suv va energiya resurslarining ortiqcha sarfi, chiqindilarni qayta ishlash tizimlarining zaifligi, uglerod izi ko'rsatkichlarining yuqoriligi va resurslardan foydalanish samaradorligining pastligi mavjud asosiy muammolardan hisoblanadi. Bu holat xalqaro bozorda "yashil" standartlar bilan ishlaydigan xaridorlar va investorlar uchun jiddiy to'siq bo'lib xizmat qilmoqda [9].

## 2. Hududiy "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishdagi nomutanosibliklar.

Hududlar kesimida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ayrim sanoat zonalarida "yashil" texnologiyalarni joriy etish borasida ijobiy natijalar kuzatilayotgan bo'lsa-da, ko'plab viloyatlarda hali ham an'anaviy ishlab chiqarish yondashuvlari ustunlik qilmoqda. Bu esa hududlararo ekologik samaradorlik darajasida sezilarli tafovutlarga olib kelmoqda. Ayrim korxonalarda energiya tejaydigan uskunalari, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va chiqindilarni kamaytirish texnologiyalari joriy etilayotgan bo'lsa-da, ko'pchilik ishlab chiqaruvchilar hali ham bunday texnologiyalarni qo'llashga tayyor emas [10].

Bunga sabab sifatida quyidagi omillarni keltirish mumkin:

- moliyaviy resurslarning cheklanganligi, xususan, kichik va o'rta biznes sub'yektlari uchun ekologik modernizatsiyaga katta miqdorda investitsiya kiritish qiyin;
- kadrlar salohiyatining yetarli emasligi, ekologik texnologiyalar va "yashil" standartlar bo'yicha mutaxassislar tanqisligi;
- me'yoriy-huquqiy bazaning sustligi, ya'ni ekologik rag'batlantiruvchi mexanizmlar va soliq imtiyozlarining yetarli darajada ishlamasligi;
- mahalliy boshqaruv organlari darajasida koordinatsiyaning pastligi, bu esa hududiy "yashil" siyosatni amalga oshirishni sekinlashtirmoqda [11].

## **Muammo va yechimlar tahlili.**

1. Innovatsion xatarlarni kompleks baholash tizimining yo'qligi. Ko'pgina korxonalarda investitsion loyihalar faqat iqtisodiy mezonlar asosida baholanadi. Ekologik va ijtimoiy xatarlar, shuningdek, texnologik noaniqliklar baholash jarayoniga kiritilmaydi.

Innovatsion xatarlarni baholashda iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy mezonlarni o'z ichiga olgan kompleks metodologiyalarni joriy etish zarur. Xalqaro ISO 14001 ekologik menejment standartlari, shuningdek ESG (Environmental, Social, Governance) ko'rsatkichlariga asoslangan baholash tizimlarini tatbiq etish samarali natija beradi [12].

2. Moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi. Ekologik modernizatsiyalash katta mablag‘ talab qiladi, biroq korxonalar ko‘pincha imtiyozli moliyalashtirish manbalariga ega emas.

Davlat tomonidan “yashil kreditlar” va ekologik grantlar mexanizmlarini kengaytirish, xalqaro ekologik fondlar bilan hamkorlikni kuchaytirish kerak. Bundan tashqari, xususiy sektorni rag‘batlantirish uchun soliq imtiyozlari, subsidiyalar va kafolat mexanizmlari yo‘lga qo‘yilishi lozim [13].

3. Hududiy tafovutlar va koordinatsiya yetishmasligi. Hududlar o‘rtasida “yashil” texnologiyalarni joriy etish darajasi notekis bo‘lib, ayrim viloyatlar bu borada ancha orqada qolmoqda. Hududiy “yashil” klasterlarni tashkil etish, ya’ni ishlab chiqaruvchilar, ilmiy markazlar va davlat tuzilmalari o‘rtasida kooperatsiya mexanizmlarini yaratish zarur. Bunday klasterlar tajriba almashish, innovatsiyalarni joriy etish va moliyalashtirishni muvofiqlashtirishda muhim o‘rin egallaydi [14].

4. Ko‘plab korxonalarda ekologik menejment va innovatsion risklarni boshqarish bo‘yicha maxsus tayyorlangan mutaxassislar mavjud emas. Oliy ta’lim muassasalari va malaka oshirish markazlarida ekologik boshqaruv, “yashil” texnologiyalar va innovatsion menejment bo‘yicha yangi o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur [15].

**1-jadval**

**O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining eksporti va muammoli ko‘rsatkichlari<sup>28</sup>**

| <b>Ko‘rsatkichlar</b>                                     | <b>Ma’lumot</b>     | <b>Vaqt – davr</b>        | <b>Izoh / muammo</b>                                                              |
|-----------------------------------------------------------|---------------------|---------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------|
| To‘qimachilik mahsulotlari eksporti, umumiy qiymati       | US\$ 2.9 milliard   | 2024- yil (yanvar-dekabr) | Eksport umumiy ichida 10.6 % ulushga ega                                          |
| Eksport tarkibida paxta ipi (yarn)                        | US\$ 1.237 milliard | 2024- yil                 | Eksportning yetakchi qismi                                                        |
| Yakunlangan (tayyor) matolar (finished textiles) eksporti | US\$ 1.124 milliard | 2024- yil                 | Qimmatli qo‘shimcha qiymat yaratilgan mahsulotlarning ulushi                      |
| Trikotaj matolar (knitwear) eksporti                      | US\$ 292.1 million  | 2024- yil                 | Nisbatan past qiymatdagi mahsulotlarga tegishli                                   |
| Matolar (fabrics) eksporti                                | US\$ 145.9 million  | 2024- yil                 | Tikuvchilik va tayyor mahsulotlar oldida turadi                                   |
| Paypoq va trikotaj buyumlari (hosiery) eksporti           | US\$ 42.6 million   | 2024- yil                 | Arzimagan ulush, yuqori qo‘shimcha qiymat yaratish imkoniyati kamroq              |
| Eksport o‘sishi (to‘qimachilik mahsulotlari)              | 14.7 %              | Q1, 2024 vs Q1, 2023      | Eksport hajmi oshgan, ammo mahsulot tarkibi jihatdan diversifikatsiya yetishmaydi |

<sup>28</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

|                                                      |                     |                             |                                                                          |
|------------------------------------------------------|---------------------|-----------------------------|--------------------------------------------------------------------------|
| Ishlab chiqarish hajmi, to'qimachilik + kiyim-kechak | 123.3 trillion so'm | 2024- yil                   | Ishlab chiqarish hajmi o'sdi, lekin eksportda pasayish ko'rinmoqda       |
| Eksport pasayishi                                    | 6.7 %               | 2024- yil (eksport vs 2023) | Ichki omillar yoki global talabdagi o'zgarishlar ta'siri bo'lishi mumkin |

Yo'qorida keltirilgan jadvalda O'zbekiston to'qimachilik sanoatining so'nggi yillardagi eksport ko'rsatkichlari, mahsulot turlari bo'yicha taqsimoti va ishlab chiqarish hajmlari bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar keltirilgan<sup>29</sup>.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, to'qimachilik mahsulotlarining umumiy eksport hajmi 2024- yilda 2,9 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, bu mamlakatning umumiy eksportida qariyb 10,6 % ulushni egallaydi. Bu ko'rsatkich sohaning milliy iqtisodiyotdagi strategik ahamiyatini tasdiqlaydi [16].

Eksport tarkibida paxta ipi (yarn) yetakchi o'rinda bo'lib, 2024- yilda 1,237 milliard AQSh dollari miqdorida eksport qilingan. Bu, asosan, past qayta ishlov darajasidagi mahsulotlar ulushi yuqoriligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, yakunlangan matolar (finished textiles) eksporti ham nisbatan yuqori bo'lib, 1,124 milliard AQSh dollarini tashkil etgan. Bu segment yuqori qo'shimcha qiymatli mahsulotlar hisoblanadi va kelgusida eksport tarkibini diversifikatsiya qilishda muhim o'rinni egallaydi [17].

Shu bilan birga, trikotaj matolar, matolar va paypoq-buyumlar eksporti hajmi nisbatan past bo'lib qolmoqda. Xususan, trikotaj matolar eksporti 292,1 million AQSh dollari, matolar esa 145,9 million AQSh dollari, paypoq va trikotaj buyumlar esa atigi 42,6 million AQSh dollarini tashkil etgan. Bu holat tayyor mahsulotlar segmentining rivojlanmaganligini ko'rsatadi, holbuki, aynan ushbu segmentlar global bozor talabida yuqori darajadagi qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlardir [18].

E'tiborga molik jihatlardan yana biri shundaki, 2024- yilning birinchi choragida to'qimachilik eksporti hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 14,7 % ga oshgan bo'lsa-da, umumiy yillik eksport hajmida 6,7 % pasayish kuzatilgan. Bu ikki ko'rsatkich o'rtasidagi tafovut eksportning mavsumiyligi, global talab o'zgarishlari va logistika cheklovlari kabi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin[19].

Shuningdek, ishlab chiqarish hajmlari bo'yicha ko'rsatkichlar tahlili ham e'tiborga loyiqdir. 2024- yilda to'qimachilik va kiyim-kechak sanoatida ishlab chiqarishning umumiy hajmi 123,3 trillion so'mni tashkil etgan. Bu o'tgan yilga nisbatan sezilarli o'sishni anglatadi. Biroq ishlab chiqarish hajmi oshgan bo'lishiga

<sup>29</sup> O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2024). Sanoat ishlab chiqarish ko'rsatkichlari. <https://stat.uz>



qaramay, eksportning qisqarishi sohada ichki bozorning kengayib borayotganligi, ayrim korxonalarining eksportga chiqishda qiyinchiliklarga duch kelayotganini bildiradi [20].

2-jadval

**O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida ishlab chiqarish hajmi, eksport va energiya samaradorligi ko‘rsatkichlari (2020–2024)<sup>30</sup>**

| Yillar | To‘qimachilik ishlab chiqarish hajmi (mlrd so‘m) | Eksport hajmi (mlrd AQSh dollari) | Energiya sarfi (kVt/soat har 1 mln so‘m mahsulotga) | Qayta tiklanuvchi energiya ulushi (%) |
|--------|--------------------------------------------------|-----------------------------------|-----------------------------------------------------|---------------------------------------|
| 2020   | 28 450                                           | 1,90                              | 1460                                                | 5,2                                   |
| 2021   | 32 870                                           | 2,38                              | 1415                                                | 6,8                                   |
| 2022   | 37 920                                           | 3,11                              | 1330                                                | 8,4                                   |
| 2023   | 41 300                                           | 3,57                              | 1240                                                | 10,1                                  |
| 2024   | 45 600                                           | 4,02                              | 1160                                                | 12,7                                  |

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida so‘nggi besh yillik davr (2020–2024) mobaynida ishlab chiqarish hajmi, eksport ko‘rsatkichlari, energiya samaradorligi va qayta tiklanuvchi energiya ulushi bo‘yicha sezilarli ijobiy dinamikani aks ettiradi. Avvalo, ishlab chiqarish hajmining o‘shish sur‘atlari e‘tiborga loyiq: 2020-yilda 28,45 trillion so‘mni tashkil etgan ko‘rsatkich 2024-yilga kelib 45,6 trillion so‘mgacha oshgan. Bu holat sanoat korxonalarida texnologik modernizatsiya, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar ulushining oshgani bilan izohlanadi.

Eksport hajmi ham izchil o‘shib borgan - 2020-yildagi 1,9 mlrd. AQSh dollaridan 2024-yilda 4,02 mlrd. dollargacha yetgan. Bu natija O‘zbekistonning global bozorlar bilan integratsiyalashuvi, xalqaro sifat standartlariga mos ishlab chiqarish jarayonlarini joriy etishi va logistika infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha ko‘rilgan kompleks chora-tadbirlar samarasi hisoblanadi. Ayniqsa, Yevropa va Osiyo bozorlariga eksport hajmining ortishi “yashil sertifikatlar” va ekologik standartlarga javob beruvchi mahsulotlarga bo‘lgan talabning kuchaygani bilan bog‘liq.

Energiya samaradorligi ko‘rsatkichlarida ham ijobiy siljish kuzatilmoqda. 2020-yilda 1 million so‘mlik mahsulot ishlab chiqarish uchun o‘rtacha 1460 kVt/soat energiya sarflangan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 1160 kVt/soatga kamaygan. Bunda sanoat korxonalarida energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish liniyalarini modernizatsiya qilish va chiqindisiz texnologiyalarga o‘tish muhim o‘rin egallagan. Shu bilan birga, ishlab chiqarish jarayonlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish ulushi

<sup>30</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

ham sezilarli ravishda oshgan - 2020-yildagi 5,2 foizdan 2024-yilda 12,7 foizgacha ko'tarilgan. Bu holat mamlakatda "yashil energetika" infratuzilmasi rivojlanayotganligi, quyosh va shamol elektr stansiyalarining sanoat zonalarida bosqichma-bosqich joriy etilayotgani bilan izohlanadi.

Biroq, mazkur o'sish ko'rsatkichlariga qaramay, ayrim tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan:

- energiya samaradorligi hali ham rivojlangan davlatlardagiga nisbatan past darajada qolmoqda. Masalan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti(OECD)ga a'zo davlatlarida ushbu ko'rsatkich o'rtacha 800–900 kVt/soatni tashkil etadi;

- innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishda korxonalar moliyaviy cheklolarga duch kelmoqda. Xususan, kichik va o'rta korxonalar energiya tejovchi uskuna va texnologiyalarni xarid qilishda kredit va grantlarga to'liq kira olmayapti;

- hududiy farqlar ham mavjud: poytaxt va sanoat markazlarida modernizatsiyalash jarayonlari tezroq kechayotgan bo'lsa, chekka hududlardagi korxonalar ortda qolmoqda.

**Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi yechimlar tavsiya etiladi:**

1. Moliyaviy rag'batlantirish mexanizmlarini kengaytirish - yashil texnologiyalarni joriy etayotgan korxonalar uchun soliq imtiyozlari, subsidiyalar va past foizli kreditlarni joriy etish.

2. Hududiy sanoat zonalarini yashil klasterlarga aylantirish - bu orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan birgalikda foydalanish va resurslarni tejimli ishlatish imkoniyati yaratiladi.

3. Texnologik transfer va xalqaro hamkorlikni kengaytirish - Yevropa Ittifoqi, Xitoy va Janubiy Koreya kabi mamlakatlar bilan hamkorlikda ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalarini mahalliy sanoatga olib kirish.

4. Kadrlar salohiyatini oshirish - innovatsion ishlab chiqarish jarayonlarini boshqaradigan mutaxassislarni tayyorlash va qayta o'qitish dasturlarini yo'lga qo'yish.

Umuman olganda, yo'qorida keltirilgan statistik ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston to'qimachilik sanoatida innovatsion faoliyat va yashil iqtisodiyot tamoyillarini birlashtirish orqali barqaror o'sish uchun zarur poydevor shakllanmoqda. Bu jarayonni jadallashtirish esa davlat siyosati, xususiyl sektor investitsiyalari va xalqaro hamkorlikning uyg'unligini talab qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, innovatsion xatarlarni samarali boshqarish va hududiy "yashil" iqtisodiyot mexanizmlarini rivojlantirish orqali to'qimachilik tarmog'ida quyidagi natijalarga erishishga yordam beradi:

- resurslardan foydalanish samaradorligi 20 –30 % gacha oshirish;
- ishlab chiqarish jarayonlarida chiqindilar va karbon izi sezilarli darajada kamaytirish;
- korxonalarning xalqaro “yashil” sertifikatlarga ega bo‘lishi orqali eksport bozorida raqobatbardoshligini kuchaytirish;
- hududiy sanoat siyosati barqaror rivojlanish tamoyillariga moslashtirish.

Shunday qilib, innovatsion xatarlarni boshqarish, ekologik siyosat bilan integratsiya qilish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki barqaror rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismiga aylanadi.

### **Xulosa va takliflar**

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati so‘nggi yillarda ishlab chiqarish hajmi, eksport ko‘rsatkichlari va energiya samaradorligini oshirishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Bu jarayon innovatsion texnologiyalarni bosqichma-bosqich joriy etish, ishlab chiqarish infratuzilmasini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga mos mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan siyosat natijasi hisoblanadi. Shu bilan birga, hududiy miqyosda “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini tatbiq etish sanoatning barqaror rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Biroq olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion xatarlarni boshqarish mexanizmlari hali to‘liq shakllanmagan. Ayrim korxonalar innovatsion texnologiyalarni joriy etishda moliyaviy resurslar yetishmasligi, texnik bilimlar va malakali kadrlar tanqisligi kabi muammolarga duch kelmoqda. Hududiy farqlar ham muhim masala bo‘lib qolmoqda - poytaxt va yirik sanoat markazlarida yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayoni tezroq kechayotgan bo‘lsa-da, chekka hududlardagi ishlab chiqarish subyektlari bu borada orqada qolmoqda. Bundan tashqari, energiya samaradorligi ko‘rsatkichlari hali ham Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti(OECD)ga a‘zo davlatlar darajasidan ancha past bo‘lib qolmoqda, bu esa texnologik modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

**Mazkur muammolarni hal etish maqsadida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:**

1. Innovatsion xatarlarni baholash va boshqarishning integratsiyalashgan tizimini yaratish. Korxonalarda innovatsion xatarlarni monitoring qilish, ularni moliyaviy, texnologik va ekologik jihatdan baholash imkonini beruvchi raqamli platformalar joriy etilishi zarur.
2. Yashil investitsiya mexanizmlarini kengaytirish. Innovatsion texnologiyalarni joriy etayotgan va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanayotgan korxonalar uchun soliq imtiyozlari, grantlar va preferensiyalar tizimini kuchaytirish lozim.

3. Hududiy sanoat klasterlarini “yashil” klasterlarga aylantirish. Bu orqali resurslardan birgalikda foydalanish, qayta tiklanuvchi energiya infratuzilmasini joriy etish va chiqindilarni kamaytirish imkoniyatlari oshadi.

4. Xalqaro hamkorlik va texnologik transferni kuchaytirish. Rivojlangan davlatlar bilan hamkorlikda ilg‘or ishlab chiqarish texnologiyalarini olib kirish, hamda xalqaro sifat va ekologik standartlarga moslashish jarayonlarini jadallashtirish zarur.

5. Kadrlar salohiyatini oshirish. Innovatsion ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish bo‘yicha malakali mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha maxsus o‘quv dasturlari tashkil etilishi lozim.

6. Hududlar kesimida maqsadli dasturlarni ishlab chiqish. Chekka hududlardagi korxonalar uchun maxsus texnik yordam va moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etish orqali ularning innovatsion salohiyatini oshirish mumkin.

Umuman olganda, to‘qimachilik sanoatida innovatsion xatarlarni samarali boshqarish va hududiy “yashil” iqtisodiyot mexanizmlarini takomillashtirish iqtisodiy o‘rnatishning sifat jihatidan yangi bosqichiga o‘tish imkonini beradi. Bu esa nafaqat sanoatning raqobatbardoshligini oshiradi, balki ekologik barqarorlikni ta‘minlash, xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish va hududiy tengsizliklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. OECD (2023). *Innovation, Green Growth and Sustainable Development*. OECD Publishing.

2. UNIDO (2022). *Sustainable Textile Production: New Technologies and Practices*. Vienna: United Nations Industrial Development Organization.

3. European Commission (2023). *EU Strategy for Sustainable and Circular Textiles*. Brussels.

4. World Bank (2023). *Green Transition in Central Asia: Policy Directions and Investment Opportunities*. Washington, DC.

5. IEA (2022). *Innovation Gaps in Clean Energy Technologies*. International Energy Agency.

6. Karimova, N. (2023). “To‘qimachilik tarmog‘ida ekologik innovatsiyalarni rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlari.” *Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali*, №4, 45-53.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyuldagi “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” to‘g‘risidagi PQ-220-son qarori.

8. International Energy Agency. “Sustainable Textile Production and Energy Efficiency.” IEA Report, 2024.

9. World Bank. "Green Transformation in Manufacturing Industries." Washington, 2023.
10. UNIDO. "Innovation and Environmental Risk Management in Developing Economies." Vienna, 2023.
11. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. "Yashil iqtisodiyot bo'yicha hududiy hisobot." Toshkent, 2024.
12. OECD. "Regional Green Growth Strategies and Industrial Clusters." Paris, 2024.
13. ISO. "ISO 14001: Environmental Management Systems." International Organization for Standardization, 2023.
14. Global Green Finance Platform. "Green Investment Mechanisms in Emerging Economies." Geneva, 2024.
15. European Commission. "Green Clusters and Regional Innovation Systems." Brussels, 2023.
16. McKinsey & Company. "The Green Transformation of Textiles: Risk, Digitalization, and Growth." Global Report, 2024.
17. International Energy Agency. (2023). *Industry direct CO<sub>2</sub> emissions in the Sustainable Development Scenario, 2000–2030*. IEA. <https://www.iea.org/data-and-statistics/charts/industry-direct-co2-emissions-in-the-sustainable-development-scenario-2000-2030>.
18. World Bank. (2022). *Green transformation in manufacturing industries*. World Bank Publications. <https://www.worldbank.org>.
19. United Nations Industrial Development Organization. (2022). *Innovation and environmental risk management in developing economies*. UNIDO. <https://www.unido.org>.
20. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2024). *Yashil iqtisodiyot bo'yicha hududiy hisobot*. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy nashri. <https://www.mf.uz>.

## **“QURILISH SOHASI FAOLIYATIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH”**

**Alimov Olimjon Sultanmuratovich**

Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti

“Biznes boshqaruv moliya” kafedrası Katta o'qituvchisi

**E-mail:** [olimjonalimov111@gmail.com](mailto:olimjonalimov111@gmail.com)

*Annotatsiya. Ushbu maqolada qurilish sohasida raqamli transformatsiya jarayonlarini takomillashtirish asosiy yo'nalishlari, afzalliklari va mavjud muammolari tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiya – qurilish loyihalari, boshqaruv va monitoring jarayonlarida zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali samaradorlikni oshirish, xarajat va vaqtni kamaytirish imkoniyatini beradi. Mahalliy olimlar va amaliyotchilar fikriga*

*Ingliz tili muharriri: Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi*  
*Musahhih: Vaxabova Marfua Mirkamalovna*  
*Sahifalovchi va dizayner: Zoirov Sardor Ziyodin o'g'li*

---

## 2- TOPLAM

### 2- MAXSUS SON /2025

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda, **“Management and Economics Scientific Research Journal”** jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pulli asosda chop etiladi.

El. pochta: [journals@timeedu.uz](mailto:journals@timeedu.uz)

Tel.: +998 95 651 90 00

“Management and Economics Scientific Research Journal” jurnali 19.09.2024-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Litsenziya raqami:

C-5669639

PNFL: 308906510

---

**Manzilimiz:** Toshkent shahar Yakkasaroy tumani  
Shota Rustaveli ko'chasi, 114